

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA RIVOJLANISH SOHALARINING O'ZARO  
INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Yigitaliyeva Gullola Mirobil qizi

Qo'qon Davlat Universiteti

Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi 2 – bosqich magistranti.

E-mail: [gullolavigitaliyeva397@gmail.com](mailto:gullolavigitaliyeva397@gmail.com)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bolalar rivojlanish sohalarini o'zaro integratsiyalash asosida tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Rivojlanishning jismoniy, ijtimoiy-emotsional, nutqiy, bilish hamda ijodiy-estetik yo'nalishlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda innovatsion pedagogik yondashuvlarning o'rni batafsil yoritilgan. Integrativ ta'lim modeli asosida yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayonining bolalar shaxsini har tomonlama kamol toptirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, rivojlanish yo'nalishlari, integratsiya, innovatsion pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar.

**Аннотация**

В статье анализируются вопросы организации направлений развития детей в системе дошкольного образования на основе их взаимной интеграции. Раскрывается роль инновационных педагогических подходов в обеспечении гармоничного единства физического, социально-эмоционального, речевого, познавательного и творчески-эстетического развития. Показаны возможности образовательного процесса, построенного на основе интегративной модели, в обеспечении всестороннего развития личности ребенка.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, направления развития, интеграция, инновационные подходы, компетентностное обучение, педагогические технологии.

**Annotation**

The article examines the organization of children's developmental areas in preschool education through their mutual integration. It highlights the role of innovative pedagogical approaches in ensuring the harmonious development of physical, socio-emotional, speech, cognitive, and creative-aesthetic domains. The potential of an educational process based on an integrative model for fostering the comprehensive development of children's personalities is also revealed.

**Keywords:** preschool education, developmental domains, integration, innovative approaches, competency-based education, pedagogical technologies.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim, tarbiyaning dastlabki bosqichida, bolaning jismoniy, aqliy, nutqiy, ijtimoiy-emotsional va estetik rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan muhim va mas'uliyatli jarayondir. Bu davrda, bola o'zining asosiy hayotiy ko'nikmalarini egallaydi, shuningdek, jamiyatga moslasha boshlaydi va o'ziga ishonchi shakllanadi. Maktabgacha ta'lim jarayoni bolalar ta'limining boshlang'ich bosqichi sifatida uning kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim olishini, sog'lom shaxsni shakllantirish va ijtimoiy hayotga moslashishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tizimining asosiy maqsadi, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdir. Bu jarayon, bolalar rivojlanishining turli sohalarini birlashtirishni talab qiladi. Rivojlanish sohalarining integratsiyasi bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada to'g'ri shakllantirish, ta'limda o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash, bolalar o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Janubiy Koreyaning

Puchon universiteti rahbarlari bilan videokonferensiya orqali muloqotida: “Biz uchun birinchi o‘rinda bolalarimizning ma‘naviyati, bilimi, sog‘ligi. Shuning uchun davlat tomonidan maktabgacha ta‘limga katta e‘tibor berilyapti va bu hali boshlanishi. Sizlarning vazifangiz bolalarning ko‘zidagi nurni ilg‘ab olish, ularga yaxshi tarbiya berish”, - dedi Shavkat Mirziyoyev. Shundan ham ko‘rinib turibdiki, davlatimiz maktabgacha ta‘limga alohida e‘tibor qaratayotgani – bu bolalarimizning ma‘naviyati, bilimi va sog‘ligiga bo‘lgan g‘amxo‘rlikning amaliy ifodasidir. Tarbiyachilar oldidagi muhim vazifa – bolalarning ko‘zidagi nurni sezib, ularni mehr bilan tarbiyalash, kelajak uchun sog‘lom, bilimli va ma‘naviyatli avlodni voyaga yetkazishdir. Davlatimiz tomonidan maktabgacha ta‘limga qaratilayotgan e‘tibor bejiz emas, chunki aynan shu bosqichda bolalarning ma‘naviyati, bilimi va sog‘lig‘i shakllanadi. Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, tarbiyachilar bolalarning ko‘zidagi nurni ilg‘ab, ularga mehr, e‘tibor va to‘g‘ri tarbiya berish orqali kelajakda Vatanga sadoqatli, sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Bolalar erta yoshda tez rivojlanadi va o‘rganadi. Bu umrbod taraqqiyot uchun muhim poydevor yaratadi va yosh bolalarga g‘amxo‘rlik va ta‘limni ta‘minlovchi kattalar ularning salomatligi, rivojlanishi va o‘qishi uchun katta mas‘uliyat yuklaydi. O‘z-o‘zini tartibga solish - bu bolaning o‘z harakatlari, his-tuyg‘ulari va fikrlarini nazorat qilish qobiliyati. Ushbu jarayon, ikkita asosiy komponentdan iborat: kognitiv - ya‘ni aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, fikrlash), hissiy - ya‘ni o‘z histuyg‘ularini boshqarish. Tadqiqotchilar o‘z-o‘zini tartibga solishni boshqacha talqin qilishadi. Ba‘zilar buni ijro etuvchi funktsiyalarning bir qismi deb bilishadi. Ijroiya funktsiyalari diqqatni jamlash, vazifalarni rejalashtirish va xatti-harakatlarni nazorat qilish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Boshqalar, o‘z-o‘zini tartibga solishni ijtimoiy-emotsional kompetentsiya yoki o‘rganish ko‘nikmalarining muhim qismi deb bilishadi. Shuningdek, o‘z-o‘zini tartibga solish ham kognitiv, ham hissiy o‘lchovlarga ega. Ba‘zida, u ijro etuvchi funktsiyaning bir qismi sifatida, ijtimoiy-emotsional kompetentsiyaning bir qismi sifatida yoki o‘rganish kompetentsiyalarining bir qismi sifatida ta‘riflanadi. Diqqat hamda xotira umumiy kognitiv jarayonlarning bir qismi ta‘lim bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib Maktabgacha, har bir mamlakat ta‘lim tizimining poydevori hisoblanadi. Aynan shu bosqich orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi, rivojlanganlik darajasi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘zaro uzviy bog‘lanadi. O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu sohani o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta‘limning tashkiliy va pedagogik asoslari O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim to‘g‘risida” gi qonuni hamda Davlat ta‘lim standartlari bilan belgilangan (Ilk qadam, 2022 ). Ushbu hujjatlar bolalarni maktabga tayyorlash jarayonini tizimli va samarali tashkil etish, pedagogik me‘yorlar va metodlarni aniqlash imkonini beradi.

**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** Keyingi yillarda O‘zbekistonda maktabgacha ta‘limga integratsion yondashuvlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktabgacha ta‘limda rivojlanish sohalarining integratsiyasida innovatsion pedagogik metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha bugunga kunga qadar F.R.Qodirova, Q.Toshpo‘latova, N.M.Qayumova, M.N.Azimova, M.A.Esonova “Maktabgacha pedagogika”, N.Sultonova, G.Nazirovalarning “Maktabgacha ta‘limda qiyosiy pedagogikasi””, Z.Nishanova, G.Alimova, A.G‘.Turg‘unboyeva, M.X.Asranboyevaning “ Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” asarlarida tadqiqotning ilmiy-nazariy asosi ochib borilgan. G.M.Naziriovaning “Maktabgacha ta‘lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda

innovatsiyalar” nomli o’zining tadqiqotida maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik jarayonni takomillashtirish, innovatsion ta’lim metodlari mazmuni mohiyatini ochib bergan. Berdaliyeva Gulasal Abduqunduzovning “Maktabgacha ta’lim muassasalari nutq o’stirish mashg’ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatish metodikasini takomillashtirish” nomli magistrlik dissertatsiyasida beshta rivojlanish sohalaridan biri nutq, muloqot, o’qish va yozish malakalari ya’ni nutq o’stirish ta’limiy faoliyatlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o’rgatish metodikasini takomillashtirish ochib berilgan. Ularning ishlari bolalar ta’limining barcha bosqichlarida ijtimoiy, emotsional, intellektual va jismoniy rivojlanishni qo’llab-quvvatlashga yordam bergan.

**METODOLOGIYA.** Mazkur tadqiqot maktabgacha ta’lim jarayonida rivojlanish sohalarining o’zaro integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarning nazariy va amaliy asoslarini o’rganishga yo’naltirildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarini pedagogik kuzatish orqali integrativ mashg’ulotlarning mazmuni va samaradorligi o’rganildi. Olingan ma’lumotlar tahlil va sintez asosida qayta ishlanib, rivojlanish sohalarini integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

**NATIJARLAR.** Tadqiqot jarayonida olib borilgan pedagogik kuzatuvlar, intervyular va bolalar faoliyatini tahlil qilish natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish ko’rsatkichlari kompleks tarzda baholandi. Olingan natijalar quyidagi yo’nalishlarda namoyon bo’ldi:

#### 1. Kognitiv rivojlanish

Qurish-yasash faoliyati bolalarda tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalarning shakllanishiga xizmat qildi. Bolalar ob’ektlar o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantirdilar. Ayniqsa, konstruktiv topshiriqlarni bajarishda muammoni bosqichma-bosqich hal qilish malakalari shakllandi.

#### 2. Sensor va motor rivojlanish

Amaliy faoliyat davomida bolalarning sezgi organlari faoliyati faollashib, predmetlarning shakli, tuzilishi va xususiyatlarini aniqlash qobiliyati rivojlandi. Shu bilan birga, kichik detallar bilan ishlash jarayonida mayda motorika takomillashib, qo’l harakatlarining aniqligi va muvofiqligi oshdi.

#### 3. Ijodiy tafakkur va tasavvur

Mashg’ulotlar davomida bolalar o’z tasavvurlariga tayanib, yangi konstruksiyalar yaratishga intildilar. Ular standart yechimlardan tashqariga chiqib, original g’oyalarni ilgari surdilar. Bu esa ijodiy fikrlash, fantaziya va estetik didning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

#### 4. Ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish

Guruhda tashkil etilgan faoliyatlar bolalarda muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va o’z fikrini asoslab berish ko’nikmalarini rivojlantirdi. Bolalar o’zaro yordam, kelishuvga erishish va ijtimoiy rollarni taqsimlash jarayonida faol ishtirok etdilar.

#### 5. Matematik tasavvurlarni shakllantirish

Qurish-yasash jarayonida bolalar miqdor, o’lcham, shakl va fazoviy joylashuvga oid dastlabki matematik tushunchalarni egalladilar. Ular predmetlarni guruhlash, taqqoslash va tartiblash orqali elementar matematik fikrlashni rivojlantirdilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari qurish-yasash faoliyatining bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim vosita ekanligini tasdiqladi.

**MUNOZARA.** O'tkazilgan tadqiqot natijalari maktabgacha ta'limda integrativ yondashuvning samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Qurish-yasash faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra turli rivojlanish sohalarini o'zaro bog'laydi va bolalarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi. Ilmiy manbalarga tayanadigan bo'lsak, zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda faoliyatga asoslangan o'qitish yetakchi o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan, qurish-yasash faoliyati bolani passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bunday faoliyat bolalarning bilimni mustaqil egallashiga, tajriba orqali o'rganishiga va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishiga xizmat qiladi.

**XULOSA.** Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlanish sohalarini integratsiyalash bolalarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.

Qurish-yasash faoliyati kognitiv, ijtimoiy, ijodiy va motor rivojlanish sohalarini uyg'unlashtiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv bolalarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Integrativ mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning kasbiy mahorati va metodik tayyorgarligi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida". O'RBQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr. — <https://lex.uz/docs/4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent: 2022
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Janubiy Koreyaning Puchon universiteti rahbarlari bilan videokonferensiya orqali muloqotidan: 26.10.2018. <https://president.uz/oz/lists/view/2110>
4. N. Sultonova, G. Nazirova. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika : o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Ilm va fan", 2023. 156-bet
5. Z. T. Nishonova, G. F. Lalimova, A. G'. Turg'unboyeva, M. X. Asranboyeva. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi [Matn]. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021. 198-bet
6. G. M. Nazirova. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda innovatsiyalar Darslik. – Toshkent, 2021.
7. G.A. Abduqunduzova. Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish : magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 178 bet.
8. Institute of Medicine, & National Research Council. Transforming the workforce for children birth through age 8: A unifying foundation (L. Allen & B. B. Kelly, Eds.). National Academies Press. 2015.